

BADIIY XRONOTOPNING O‘ZBEK NASRIDAGI ILK ILDIZLARI TALQINI

**Alfraganus Universiteti
Filologiya fakulteti Xorijiy tillar kafedarsi
O‘qituvchisi Pardayev To‘lqin**

Badiiy asardagi makon va zamon, vaqt beliglar, oylar, yillar va uning turli rakurslarda yuzaga chiqish omillari borasida anchayin ilmiy tadqiqotlar boshlab yuborildi. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati tarix va hayot haqiqatini uzviylikda olib borish, mumtoz va yangi davr nasridagi an’ana hamda noan’ana orasidagi chegarani aniqlash, milliy romanchilik tizimidagi o‘ziga xosliklarni dalolatlashga qaratilgani sir emas. XV asrdan keyin o‘zbek mumtoz adabiyotidagi janrlar konsepsiyasida bir xillikdan ko‘p xillikka, nasriy asarlarning taraqqiy etishiga katta urinishlar bo‘ldi. Mumtoz adiblarimiz asarlarining badiiy-estetik qiymati, undagi falsafiy-psixologik nuqtalar, odam va olam haqidagi qarrashlar sintezi mavjud muammolarning barham topishiga imkon berdi. O‘z-o‘zidan ayonki, badiiy makon va zamon orasidagi muayyan sodir bo‘ladigan vaqtning intensiv ko‘rinishi yozuvchi yoki shoirlar tomonidan to‘qimalar negizida real mohiyat kasb etdi. Unda har qanday olib chiqilgan rivoyaviy masala teranlashuvi kuzatildi.¹

a’kidlash joiz, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodining o‘ziga xos qirralarini o‘rgangan prof.U.Jo‘raqulov shunday yozadi: “Lison ut-tayr”ning asosiy xronotop chizig‘i inson botini – olam ul-akbar bilan bog‘liq. Shu ma’noda, “Lison ut-tayr”, ba’zi tadqiqotlarda qayd etilganidek, na qushlar, na murshid va solik munosabati haqida, na bolalarga qarata yozilgan asar, balki cheksizlik ichra o‘zini qidirayotgan, mavjudiyatidan ma’no izlayotgan, komillik, Yaratganning jamoli sari safarga chiqqan zokir (zikr qilayotgan so‘fiy) haqidagi asardir. “Lison ut-tayr”ning asl mohiyatida ULUG‘ VISOLna yetishuv yo‘li va bu yo‘l sirlari yashirin”. Haqiqatdan ham, ulug‘ visol sari qushlarning sayohatga chiqishi, Tangri taoloning jamoli sari oshiqish,

¹ Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T: “G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”. 2015 .-B.116.

o‘zligini anglashga bo‘lgan, intilgan odam bolasining ichki ruhiy ehtiyojidir. Bu ehtiyoj komil insonning o‘zi bilan birga yashaydi. Uning tilu dilida Allohga bo‘lgan ulug‘ muhabbat qoimdir. Natijada, shoir yoshlikda ko‘ngliga solgan Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yod olgani, asar ta’sirida bir umr yashab, o‘ziga izlagan ma’nolarni kashf etgani, umr shomida bitishga iqror bo‘lganini ko‘pchilik yaxshi bilishadi. Navoiy talpingan ideal ingliz o‘rta asrlar nasrida, dramaturgiyasida, tragediyasida, romanlaru pamfletlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Mana shu o‘rish-o‘zgarishlar yozuvchi-shoir, dramaturg izlanishlarining “qaymog‘”i bo‘lib yuzaga chiqa boshlaydi.

Rus munaqqidi M.M.Baxtin ta’biricha “Ko‘pincha adabiyotda uchrashuv xronotopi kompozision funksiya bajaradi: ba’zan tugun, ba’zan kulminasion funksiya, ba’zida esa syujet yechimi vazifasini o‘taydi... Ayniqsa, uchrashuv motivi – turli xil uchrashuvlari – yo‘l xronotopi (“katta yo‘l”) bilan muhim bog‘lanishga ega. Yo‘l xronotopida makon-zamon uyg‘unligi mukammal tarzda aniq va yorqin ochiladi... Mifologik, diniy sohalarda uchrashuv motivi, albatta, yetakchi vazifalardan birini bajaradi: ilohiy naqllarda, ilohiy bitiklarda (masalan, masihiylar “Injil”da bo‘lganidek buddaviylikda ham), diniy marosimlarda uchrashuv motivi “yaralish” motivi bilan uyg‘un keladi”. Binobarin, rus munaqqidi Mixail Baxtin ta’kidlaganidek, “uchrashuv” xronotopi har qanday badiiy asarning syujetida kutilmagan burilishlar, voqelarning sekin yoki tez suratda hal bo‘lishiga, xarakterlarning ichiki olami ochilishiga, obrazlarning o‘z maromida harakatlanishiga, ijodkor konsepsiyasining izchil yuzaga chiqishiga yetaklaydi².

Bu tushuncha dramatik asarlarda ham alohida ahamiyatlidir. Nasriy asarlarda esa uchrashuv motivi, har bir qahramonning tabiatidan kelib chiqadigan vazifani, missiyani o‘z nazoratiga oladi. Bu nazorat yozuvchining g‘oya hamda mazmunning birligini ham talqin qilishga yetaklaydi. Ana shu munosabat bilan ko‘zlangan har qanday talqin – uchrashuv motividagi makon va zamonda kechuvchi muayyan voqealar tizimini tartiblashtiradi. Ya’ni konfliktning, psixologizmning, voqelar rivojining tadrijiy takomilini ham o‘ziga xos tarzda bir-biriga bog‘lashga sabab bo‘ladi.

² Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T: “Akademnashr”. 2015. –B. 248-249.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T: “G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”. 2015 .-B.116.
2. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T: “Akademnashr”. 2015. –B. 248-249.